

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3/1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3/1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3/1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....5

2. Пак Полина

ЦИФРОВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Вахидова София

ФАКТОРЫ, ПРЕДСКАЗЫВАЮЩИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТЬ ГЕНДЕРНЫМ СТЕРЕОТИПАМ В ОТНОШЕНИИ МУЖЧИН: ОПЫТ МНОЖЕСТВЕННОГО РЕГРЕССИОННОГО АНАЛИЗА.....21

4. Abduvalieva Mumtozxon, Qo'ldosheva Iroda

BOLALAR IJTIMOYIY HIMOYASINING XALQARO STANDARTLARI VA GLOBAL RIVOJLANTIRISH TENDENSIYLARI.....29

5. Bozorova O'lmasxon

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOYIY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....37

6. Adilova Rayxon

IBN SINONING "SIYOSAT"RISOLASIDA "DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT" NAZARIYASI.....44

7. Artikbayeva Nazokat

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....52

8. Arifxodjayeva Luiza

YOSH RAHBARLARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI BAHOLASH TIZIMI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....58

9. Махмудова Малика

ЛАТЕНТНАЯ «ВИНОВНОСТЬ ЖЕРТВЫ» КАК БАРЬЕР ДОСТУПА ЖЕНЩИН К ПРАВОСУДИЮ ПО ДЕЛАМ О СЕМЕЙНОМ НАСИЛИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....65

10. Тилепова Гулайым

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИЕЙ.....76

11. Bekchanova Sevinch

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA).....90

12. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTSIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI.....97

13. Azizov S.

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL.....105

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Abdullayev Sardorbek,

IIV Akademiyasi Xizmat psixologiyasi
va kasbiy madaniyati kafedrası boshlig'i o'rinbosari,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: asardorbek77777@gmail.com

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21498595>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashning sotsiologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda professional ta'lim muassasalari faoliyatini mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirish, ish beruvchilar ehtiyojlarini muntazam o'rganish hamda hududiy bandlik monitoringini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Mehnat bozori ehtiyojlarini oldindan prognozlashning nazariy va amaliy jihatlari tizimli hamda institutsional yondashuv asosida baholangan. Tadqiqot davomida sotsiologik tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar professional ta'lim tizimida mehnat bozori monitoringini takomillashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda kadrlar tayyorlash parametrlarini iqtisodiyot tarmoqlarining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlariga mos ravishda shakllantirish zarurligini ko'rsatdi. Muallif tomonidan mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashning ustuvor yo'nalishlari hamda professional ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, mehnat bozori, prognozlash, bandlik, sotsiologik tahlil, monitoring, kasbiy ta'lim, ish beruvchi, institutsional hamkorlik.

Абдуллаев Сардорбек,

заместитель начальника кафедры
“Служебной психологии и профессиональной культуры”
Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан,
доктор философии (PhD) по социологическим наукам, доцент.
e-mail: asardorbek77777@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ПОТРЕБНОСТЕЙ РЫНКА ТРУДА В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются социологические основы прогнозирования потребностей рынка труда в системе профессионального образования. Исследованы вопросы согласования деятельности учреждений профессионального образования с современными требованиями рынка труда, систематического изучения потребностей работодателей и совершенствования

регионального мониторинга занятости. Теоретические и практические аспекты прогнозирования потребностей рынка труда проанализированы на основе системного и институционального подходов. В ходе исследования использованы методы социологического анализа, сравнительного анализа, экспертной оценки и обобщения. Полученные результаты свидетельствуют о необходимости совершенствования системы мониторинга рынка труда, расширения сотрудничества между образовательными учреждениями и работодателями, а также формирования параметров подготовки кадров с учётом перспективных направлений развития отраслей экономики. Автором разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию механизмов прогнозирования потребностей рынка труда и развитию системы профессионального образования.

Ключевые слова: профессиональное образование, рынок труда, прогнозирование, занятость, социологический анализ, мониторинг, профессиональная подготовка, работодатель, институциональное сотрудничество.

Abdullayev Sardorbek,

Deputy Head of the Department of Service
Psychology and Professional Culture,
Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan,

Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology, Associate Professor.
e-mail: asardorbek77777@gmail.com

IMPROVING THE SOCIOLOGICAL MECHANISMS FOR FORECASTING LABOUR MARKET NEEDS IN THE VOCATIONAL EDUCATION SYSTEM

ABSTRACT

This article examines the sociological foundations for forecasting labour market needs within the vocational education system. The study analyses the alignment of vocational education institutions with labour market requirements, the systematic assessment of employers' demands, and the improvement of regional employment monitoring. The theoretical and practical aspects of labour market forecasting are explored through systemic and institutional approaches. The research employs sociological analysis, comparative analysis, expert evaluation, and generalisation methods. The findings highlight the necessity of improving labour market monitoring, strengthening cooperation between vocational education institutions and employers, and designing workforce training parameters in accordance with the prospective development of economic sectors. The author proposes scientific and practical recommendations aimed at enhancing labour market forecasting mechanisms and improving the vocational education system.

Keywords: vocational education, labour market, forecasting, employment, sociological analysis, monitoring, vocational training, employer, institutional cooperation.

KIRISH.

Bugungi kunda iqtisodiyotning jadal modernizatsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda yangi kasblarning shakllanishi professional ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mehnat bozori talablarini oldindan prognozlash professional ta'lim tizimining samaradorligini oshirish hamda bitiruvchilarning barqaror bandligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda professional ta'limni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda mehnat bozori bilan integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq hududlar kesimida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni prognozlash, mehnat bozori monitoringi hamda ta'lim buyurtmalarini shakllantirish mexanizmlarida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashning sotsiologik asoslarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mamlakatimizda ta'lim olish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash hamda mehnat qilish huquqlarini ro'yobga chiqarish kafolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42, 44, 45, 46, 50, 51, 65, 66-moddalarida [1, – B.25], shuningdek, 2020-yil 20-oktabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Aholi bandligi to'g'risida”gi O'RQ-642-son Qonunida o'z aksini topgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida “har bir shaxsning munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsiz mehnat sharoitlarida ishlash, adolatli haq olish hamda ishsizlikdan qonun asosida himoyalanih huquqi kafolatlangan”ligi [1, – B.15-16] belgilab qo'yilgan bo'lib, bu me'yoriy-huquqiy asoslar bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashning asosiy institutsional mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

METODOLOGIYA.

Professional ta'lim tizimi, mehnat bozori hamda bandlik masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Inson kapitali nazariyasi asoschilari G.Becker va T.Shultz [4] kasbiy ta'limning iqtisodiy rivojlanish hamda mehnat unumdorligini oshirishdagi o'rnini ilmiy asoslab berganlar. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)[10], UNESCO [5] hamda OECD [6] ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash, professional ta'limni iqtisodiyot tarmoqlari bilan integratsiyalash va bitiruvchilar bandligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari yoritilgan.

O'zbekistonda professional ta'lim tizimini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash masalalari Sh.M.Mirziyoyev asarlarida [2], shuningdek, mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda o'z aksini topgan [3]. Biroq mehnat bozori ehtiyojlarini sotsiologik prognozlash, hududiy bandlik monitoringini takomillashtirish hamda professional ta'lim tizimida prognozlash indikatorlarini ishlab chiqish masalalari yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolada aynan ushbu jihatlariga e'tibor qaratilib, professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashning sotsiologik asoslari hamda uni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqotda tizimli, institutsional hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik ma'lumotlar professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari, ish beruvchilar va bandlik organlari mutaxassisleri ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida umumlashtirildi. Ma'lumotlarni yig'ishda anketa so'rovi, ekspert baholash va ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda professional ta'lim tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda statistik va mantiqiy tahlil usullari asosida baholandi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot natijalari professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Respondentlar va ekspertlarning fikriga ko'ra, kadrlar tayyorlash hajmini mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirishda muntazam monitoring hamda ish beruvchilar bilan institutsional hamkorlik muhim omil hisoblanadi (1-jadval, 1-rasm).

1-jadval

Professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashga ta'sir etuvchi omillar [7]

№	Omillar	Ulushi (%)
1.	Ish beruvchilar ehtiyojlarini muntazam o'rganish	84,5
2.	Hududiy mehnat bozori monitoringi	81,2
3.	Ta'lim muassasalari va ish beruvchilar hamkorligi	78,9

4.	Raqamli bandlik platformalaridan foydalanish	73,6
5.	Kasblar klassifikatorini yangilash	69,8

Jadval natijalaridan ko‘rinadiki, respondentlarning aksariyati mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashda ish beruvchilar ehtiyojlarini muntazam o‘rganish (84,5 %) hamda hududiy mehnat bozori monitoringini takomillashtirishni (81,2 %) ustuvor yo‘nalish sifatida baholagan. Shuningdek, ta‘lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda raqamli monitoring tizimlarini rivojlantirish professional ta‘lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirishning muhim omili sifatida e’tirof etildi.

Olingan natijalar professional ta‘lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, hududiy ehtiyojlarni muntazam tahlil qilish va kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichlarini real iqtisodiyot talablariga mos ravishda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Professional ta‘lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlikni ta‘minlash zamonaviy ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot, texnologik yangilanishlar hamda kasblar tarkibining tez o‘zgarishi ta‘lim tizimidan mehnat bozori ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash faqat statistik ko‘rsatkichlarga emas, balki sotsiologik tahlil natijalariga ham asoslanishi zarur. Chunki, ish beruvchilarning kadrlarga bo‘lgan talabi, yoshlarning kasbiy qadriyatlar, kasb tanlash motivlari, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar va demografik omillar mehnat bozori rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Sotsiologik prognozlashning muhim afzalligi shundaki, u mehnat bozorida yuz berayotgan sifat o‘zgarishlarini oldindan aniqlash, yangi kasblarga ehtiyojning shakllanish dinamikasini baholash hamda professional ta‘lim dasturlarini istiqboldagi talablar asosida takomillashtirish imkonini beradi. Bunday yondashuvda ommaviy so‘rovlar, ekspert baholash, fokus-guruhlar, kontent tahlili va monitoring tadqiqotlari o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Natijada mehnat bozori subyektlari – davlat organlari, ta‘lim muassasalari, ish beruvchilar va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida samarali axborot almashinuvi shakllanadi.

Professional ta‘lim tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan ta‘lim dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi bilan belgilanadi. Shu sababli kasbiy standartlar, malaka talablari va o‘quv rejalari muntazam ravishda yangilanib borilishi, ularning shakllanishida ish beruvchilarning bevosita ishtiroki ta‘minlanishi zarur. Bu esa ta‘lim mazmunini real iqtisodiyot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish hamda ularning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi.


Hududlar kesimida olib boriladigan sotsiologik monitoring ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, mamlakat hududlarining iqtisodiy ixtisoslashuvi, investitsion faolligi, demografik tarkibi va migratsiya jarayonlari mehnat resurslariga bo‘lgan talabni turlicha shakllantiradi. Shu bois prognozlash tizimida hududiy indikatorlardan keng foydalanish professional ta‘lim muassasalarida qabul kvotalarini optimallashtirish, yangi ta‘lim yo‘nalishlarini ochish hamda mavjud mutaxassisliklarni qayta ko‘rib chiqishga ilmiy asos yaratadi.

Shuningdek, sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar (Big Data), elektron bandlik platformalari va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish sotsiologik prognozlashning aniqligi va tezkorligini sezilarli darajada oshiradi. Raqamli ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantiriladigan analitik modellar mehnat bozoridagi qisqa va uzoq muddatli tendensiyalarni baholash, kadrlar balansini prognozlash hamda ta‘lim siyosatini dalillarga asoslangan boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, professional ta‘lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashning sotsiologik mexanizmlarini takomillashtirish kompleks institutsional yondashuvni talab qiladi. Bunda sotsiologik tadqiqotlar natijalarini davlat boshqaruvi, ta‘lim siyosati va bandlik tizimi faoliyatiga tizimli ravishda integratsiya qilish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish professional ta‘lim

sifatini oshirish, kadrlar tayyorlashning mehnat bozori talablariga mosligini ta'minlash va mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashga ta'sir etuvchi omillar ^[7]



1-rasm. Professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlashga ta'sir etuvchi omillar^[7]

Olingan natijalar professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Xususan, ish beruvchilar ehtiyojlarini muntazam o'rganish, hududiy mehnat bozori monitoringini yo'lga qo'yish hamda ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur natijalar OECD va ILO tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan xulosalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida ham mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash va ta'lim tizimini iqtisodiyot tarmoqlari bilan integratsiyalash bitiruvchilar bandligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida baholangan.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida hududlar bo'yicha mehnat bozori ehtiyojlarini muntazam tahlil qilish, kasblar klassifikatorini zamonaviy iqtisodiyot talablariga mos ravishda yangilash hamda prognoz natijalarini professional ta'lim muassasalarining qabul parametrlarini shakllantirishda qo'llash zarurligini ko'rsatdi [9].

Professional ta'lim bitiruvchilarning mehnat bozoriga integratsiyasi jahon va milliy iqtisodiyotdagi transformatsiyalar, ta'lim tizimi hamda ish beruvchilar o'rtasidagi institutsional hamkorlik darajasi, shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari ham bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirish jarayoni qator tizimli muammolar bilan kechayotganini ko'rsatdi. Masalan, mehnat bozori talablari va ta'lim sifati o'rtasidagi nomutanosiblik bitiruvchilar bandligini ta'minlashda asosiy to'siqlardan biri sifatida qayd etilmoqda. Ish beruvchilar tomonidan amaliy ko'nikmalar va kasbiy tajribaning yetarli emasligi tadqiqot natijalari ko'rsatmoqda [8].

Ikkinchidan, amaliy tayyorgarlik tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuv jarayonini murakkablashtirmoqda. Ishlab chiqarish amaliyotining formal xarakter kasb etishi ularning raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchinchidan, mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi kasbiy disbalans kuzatilmoqda. Ayrim yo'nalishlarda kadrlar ortiqchaligi, boshqa sohalarida esa malakali mutaxassislar etishmasligi aniqlanib, bu holat kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori kon'yunkturasiga moslashtirish zarurligini nomoyon etmoqda.

To'rtinchidan, bitiruvchilarning mehnat muhitiga ijtimoiy-kasbiy moslashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgani aniqlandi. Bu esa qayta tayyorlash va malaka oshirish mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini izohlaydi.

Beshinchidan, bo'sh ish o'rinlari, kasbiy talab va bandlik dasturlari haqidagi axborot etishmovchiligi ham muhim sotsiologik muammo sifatida qayd etildi. Mazkur holat bitiruvchilar bandligini ta'minlashda axborot mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ta'lim tizimini tartibga soluvchi ijtimoiy qatlamlarning shakllanish tendensiyasi, bandlik muammolarini hal etishda ta'lim tizimining ijtimoiy mexanizm sifatidagi o'rni hamda mehnat bozorida bandlikni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar faolligining ortib borishi bandlikning yangi konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Mehnat bozorida talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi, ayniqsa, mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, yuqori intellektual salohiyatga ega zamonaviy kadrlarni tayyorlash dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va isloh qilish zarurligini ko'rsatadi[9]. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda ijtimoiy mexanizmlarning institutsional integratsiyani rivojlantirish, kasbiy motivatsiya omillarini kuchaytirish va bitiruvchilar bandligini monitoring qiluvchi axborot platformalarini joriy etish orqali kompleks takomillashtirilishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar asosida mehnat bozori talablari va professional ta'lim tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash bitiruvchilarning mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashish darajasini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Mehnati bozori ehtiyojlarini prognozlashda ish beruvchilar ishtirokini kengaytirish, hududiy monitoring tizimini takomillashtirish hamda ta'lim muassasalari faoliyatini iqtisodiyot tarmoqlarining istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirish zarur. Shuningdek, professional ta'lim tizimida zamonaviy raqamli monitoring vositalaridan foydalanish, kasblar klassifikatorini muntazam yangilab borish hamda prognoz natijalarini davlat buyurtmasi va qabul parametrlarini shakllantirishda qo'llash mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi institutsional hamkorlik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot natijalari professional ta'lim tizimida mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Abdullayev S.U. Monografiya, Yangi O'zbekistonda ta'lim va bandlik: bandlikni oshirishning ijtimoiy mexanizmlari. – Toshkent, 2024.
4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press, 1993.
5. UNESCO. Strategy for Technical and Vocational Education and Training (TVET) 2022–2029. – Paris: UNESCO, 2022.
6. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2024.
7. Abdullayev S.U. Yangi O'zbekistonda ta'lim va bandlik: bandlikni oshirishning ijtimoiy mexanizmlari. – Toshkent, 2024.
8. Abdullayev S.U. Social Factors Ensuring the Quality and Effectiveness of Vocational Education. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. – 2025.

-
9. Abdullayev S.U., Karimjonov O.A. Обеспечение занятости выпускников профессионального образования: теоретические подходы и социальная политика. Urganch davlat pedagogika instituti axborotnomasi. – 2025. – №4. – В. 324–330.
 10. International Labour Organization. Building Future-Ready Vocational Education and Training Systems. Geneva: ILO, 2024.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000